

**O'QUVCHILAR BILIM, KO'NIKMA VA MALAKALARINI TEKSHIRISH VA BAHOLASH  
USULLARI**

Alijonov Sherali Valijon o'g'li

Quvasoy shahar 16-maktab geografiya fani o'qituvchisi

Alijonova Nuriniso Valijon qizi

Farg'ona davlat universiteti talabasi

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada geografiya o'qituvchilari uchun o'quvchilarining bilim, ko'nikma va malakalarini tekshirish va baholash usullari berilgan. O'quvchilar bilim, malaka va ko'nikmalarini nazorat qilish va baholash geografiya darsini eng muhim qisimlaridan biridir.*

**Kalit so`zlar:** *Individual surash, "kartadan sharxlash", "karta sayohat", perfokartalar, indefikatsion kartalar, pedagogik texnologiya.*

O'quvchilar bilim, malaka va ko'nikmalarini baholashda bir qancha tajribadan o'tgan usullar bor. Lekin bugungi kundagi nazorat qilish va baholash qisqa vaqtini talab etishi va o'quvchilar bilmini konkret baholanishiga yordam berishi zarur. Bunda ta'limning texnika vositalaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

O'quvchilarining bilim, ko'nikma va malakalari asosan uch xil usul:

- 1 - og'zaki;
- 2 - yozma tekshirish usuli;
- 3 - amaliy tekshirish usuli bilan tekshiriladi.

Og'zaki tekshirish usuli. Tekshirishning bu usuli butun tekshirish jarayonida yetakchi hisoblanadi. Og'zaki tekshirish ikki xil: yakkama - yakka va yopasinga surash usulida olib boriladi.

Individual surash - og'zaki tekshirishning asosiy va ko'p qo'llaniladigan turidir. So'rashning bu usuli o'quvchilarining fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishi lozim, bu esa beriladigan savolga bog'liq.

Asosiy savol birinchi berildigan savol bo'lib, u kengroq, to'liqroq javob berishini talab qiladi. Masalan, "Yevroсиyo iqlimi" temasi yuzasidan quyidagi savollarni tavsiya etish mumkin. A) Yevroсиyo iqlimining tarkib topishiga qaysi omillar ta'sir kursatadi? B) Yevroсиyo iqlimining o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat? V) Hind okeani va Yevrosiyoning relefi uning iqlimining tarkib topishiga qanday ta'sir ko'rsatdi?

O'quvchilarining javobini faqat mazmuni jixatidagini emas, balik shakli jixatidan ham kuzatishi lozim. O'quvchilarni muayyan bir tartib bilan adabiy tilda javob berishga o'rgatish kerak.

Individual so'rashning ayrim salbiy tomonlari ham bor. So'rash vaqtida ko'pchilik o'quvchilar javobini tinglamasligi, boshqa ish bilan shug'llanib o'tirishi yoki o'qituvchining chaqirishini kutib, navbatdagi beriladigan savolga javob axtarib o'tirishi mumkin.

Yoppasiga so'rashdan mavzu o'rganib bo'linganidan keyin ham o'tkazilishi mumkin. Yangi mavzuni o'rganishga kirishishdan oldin ham o'rganilgan mavzular o'quvchilardan yoppasiga so'raladi. Ko'rsatmali qo'llanmalar yuzasidan ba'zi bir savollar berish yo'li bilan ham o'quvchilarning tabiiy geografik ob'ektlar to'g'risida olgan tasavvuri va bilimi tekshirib kuriladi.

Yozma tekshirish usuli. Bu usul o'quvchilarning bilimini aniqlash maqsadida o'tkaziladi. Bunday tekshirishlar kundalik dars hamda katta mavzular va blimlar yuzasidan o'tkazilishi mumkin. Yozma tekshirishda o'quvchilarning karta bilan ishlashga doir ko`nikma va malakalarini aniqlashga alovida e'tibor berish lozim.

O'zbekistondagi ilg'or geografik o'qituvchilarning "kartadan sharxlash" usulida olib boradigan yozma ishlari diqqatga sazovardir.

O'quvchilar bilimini yozma tekshirishda jadvallar to'ldirish, "karta sayoxat"ni yozma tasvirlash va geografik diktantdan foydalanish mumkin.

Tekst usulidagi topshiriqlar bir qancha savollardan iborat bo'ladi: Javob berishda raqamlar o'rnini almashtirish, qisqacha jovob yozish yoki chizib qo'yish bilan kifoyalanishi kerak.

Test usulida tekshirish o'quvchilarning haqiqiy bilim va ko'nikmalarini aniqlashga yordam beradi geografik diktant o'quvchilarning geografik tasavvurlarini kengaytiradi, ularni topqirlik va xozir javoblikka o'rgatadi. YOzma ish olingandan so'ng navbatdagi darsdayoq uning natijasini, ya'ni baxolarini eshittirish lozim.

Amaliy tekshirish usuli. Bu usul qisqa (10 minut chamasi) vaqt ichida barcha o'quvchilar bilimini aniqlash va baxolashga yordam beradi. Amaliy tekshirishning quyidagi turlaridan foydalanish mumkin:

1. Karta bajariladigan ishlari va mashqlar - o'quvchilarning karta orientirlay olishlarni, karta masshtab, karta va globusdagi gradus turlaridan foydalana olishlarini aniqlash maqsadida o'tkaziladi. Karta aniqlangan o'lchov natijalari bilan globusda aniqlangan o'lchov natijalarini solishtiring.

2. Topografik diktant - o'quvchilarning topografik karta belgilarini qay darajada bo'lib olganliklarini aniqlash uchun o'tkaziladi. Masalan, daftarda sayyoxlarning marshruti va atrofdagi joylarni tasvirlash mumkin.

3. Geografik topshiriqlar. Bunday topshiriqlarning mazmuni xilma - xil bo'lishi mumkin. Xavo temperaturasi xar 100m balandga ko'tarilgan sari 0,6 soviy boshlasa 3450 m balandlikka ko'tarilgandan keyin necha gradus bo'ladi?

4. Kartalarning solishtirish. Bu usul o'quvchilarning karta bilan ishlashga ularni xayolda fikran solishtirishga o'rgatish maqsadida qo'llaniladi va o'quvchilar bilimini tekshirishda foydalaniladi.

5. Kontur kartadan berilgan topshiriqlar. Kontur kartalardan geografik diktantlardan tashqari kontrol topshiriqlar uchun ham foydalanishi mumkin.

6. Asboblar yordamida ko'nikmalarni tekshirish. Bu usulda o'quvchilarning bilim va ko'nikmalari - ruletka, planshet, kompos, termometr, flyuger, qor qalinligini ulchaydigan reyka, gnomon, skafis kabi asboblar bilan ishlaydi.

7. O'quvchilarning bilimi butun dakrs jarayonida xisobga olinib, dars oxirida baholanadi, bunda quyidagilarga e'tibor berishi lozim:

a) o'rganilgan mavzuni yaxshi bilishiga, b) qonuniyatlardan tushinchalash olishiga v) javobni o'lka materiallari bilan bog'lay olishiga, d) yangi o'rganilgan mavzu ilgari o'rganilgan mavzularga bog'lab javob qaytarishga; e) kartani o'qiy bilishiga; j) mustaqil va ishonch bilan javob berishiga.

Bilimni tekshirish va baxolash - o'qituvchidan qunt va maxorat talab qiluvchi ta'limning murakkab qismidir. Ta'limning texnika vositalaridan, xususan, o'rgatish va bilimni tekshirish uchun qullaniladigan yangi kontrol mashinalaridan foydalanish esa vaqtini ko'p oladigan bu jarayonni avtomatlashtirishga imkon beradi. Xozirgi vaqtda mifik o'quvchilarning bilim va malakalarini nazorat qilish va baxolashda turli markadagi kompg'yuterlar va ularga kiritilgan test savollar, "Ekzamenator", "Ogonok", "TE-3", "AKPO", "ASPK- 7B", "O'zbekiston", "TEMP -2M" va boshqa mashinalar xamda eng sodda programmalashtirilgan kontrol qurilmalari, perfokartalardan foydalaniylmoqda. Bu vositalarning vazifasi maxsus nazorat dasturlari yordamida o'quvchilarning o'quv materialini qay darajada o'zlashtirganliklari to'g'risida axborot olishdir. Bu mashina boshqa nazorat qilish mashinalariga ko'ra ancha qulaydir. U bilan butun sinfni 5 daqiqa ichida suoqlash va natijada olingan axborotni 4 daqiqa ichida tekshirish va baxolash mumkin.

O'quvchilarning geografik bilim va malakalarini tekshirish va baholash uchun turli variantlarda test dasturlari tuziladi. Xar bir o'quvchida bittadan indentifikatsion kartalar bo'lib. Ularda 1 dan 6gacha savollar nomeri va 1dan 4 gacha javoblar nomeri hamda 1 dan 6 gacha variantlar nomeri bo'ladi. O'quvchilarning familiya, ism, sinfi va jurnaldagi nomeri indantifatsion kartaning tashqi qismiga yozib, o'quvchilarga test savollari bilan birga tarqatiladi. O'quvchi savollarga to'g'ri javob nomerlarini aniqlab, panelning mos nomeriga tug'ri kelgan kontaktni qalam bilan bo'yab belgi qo'yadi. O'quvchi kartalarni yig'ishtirib olib, mashinadagi tug'ri javoblar kodi va variant nomerlarini moslagan holda mashinaga joylashtiradi. So'ng baxo dastagini bosadi. Mashina ko'rsatkichida o'quvchining variant nomeri va to'g'ri javob nomeriga to'g'ri keladigan baxo aks etadi. Mashinaga kiritilgan qalamda qo'yilgan belgilar rezinka bilan o'chirilib, qayta ishlatilish mumkin.

O'quvchilarning geografik bilim va malakalarini tekshirishda va baxolashda, ayrim mavzularni urganish va mustaxkamlashda o'qituvchiga magnitli doska yaqindan yordam beradi. Magntli doska turli kattalikdagi (70x70 sm. 100x100sm, 120x120sm) yupqa metalldan ishlanib, oq emal bilan bo'yaladi. Karton qog'ozlarga chizilgan turli shartli belgilari BF kley bilan magnitlarga yopishtiriladi.

Magnitli doska yordamida o'quvchilarning bilim va malakalari quyidagicha tekshiriladi:

1. O'quvchi berilgan topshiriq bo'yicha turli shartli belgilardan foydalanib joy planini yoki sanoat kompleksini sxemasini tuzadi.

2. Doskaga chiqarilgan o'quvchi magnitli doskaga o'qituvchi tomonidan oldindan tayyorlangan sxemani xatosini topadi va shartli belgilarni almashtirib, uni to'g'rileydi.

Yangi ped texnologiya uslublaridan foydalanganda quyidagilarga ehtibor beriladi:

- Uslub tanlashda dars o'tiladigan sinf yoshi e'tiborga olinadi.

- Mavzu tanlanadigan uslub uchun asos bo'lishi shart.

- Dars boshida o'qituvchi o'quvchilarga qo'laniishi lozim bo'lgan uslubdagi faoliyatni belgilab beradi.

- O'qituvchining pedagogik mahoratigina darsda qo'llanilayotgan uslubni oqlab chiqishi mumkin. Unda o'qituvchi tanlangan uslubni albatta ssenariy asosida shakllantirishi hamda undagi ba`zi momentlarni o'quvchilardan sir tutishi lozim bo'ladi.

- Dars jarayonida o'qituvchi vaqtini to'g'ri belgilashi va har bir minut uchun kerali topshiriq va tadbirlarni ishlab chiqishi lozim.

- Dars davomida o'qituvchi o'quvchilar faoliyatiga chuqur aralashmasligi faqatgina «dirijer»lik qilishigina zarur.

- Darsda o'quvchilarga to'liq erkinlik berish, ularni fikrlarini erkin ifoda etishlariga imkon berishi zarur.

- Sinf xonasidagi o'rindiqlarni tanlangan uslub uchun mos holda qo'yish va ularni o'rinalarini tez-tez almashtirib turish zarur.

## XULOSA

O'qituvchi uslub va usullardan mohirlilik bilan foydalansagina o'quvchilarga bilim berishda va ularda ko'nikma hamda malakalar hosil qilishda yaxshi natijaga ega bo'lishi mumkin. Geografiya o'qitishda samarali natijalarga erishishning asosiy yo'li - uslub va usullardan ijodiy tarzda foydalanishdir.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Jahongirmirzo Jamoliddin O'G'Lи Mamatisakov, Nuriniso Valijon Qizi Alijanova, & Sarvinoz Zokirjon Qizi Rahmatullayeva (2022). QUVASOY HUDUDIDAGI TOPONIMLARNING STRATIGRAFIK TAHLILI. Central Asian Academic Journal of Scientific Research, 2 (10), 49-55.

2. Jamoliddin o'g'li, J. M., & Isroiljon o'g', D. R. Z. (2022). DESCRIPTION OF LOCAL HISTORY AND EXCURSION OBJECTS OF FERGANA REGION.

3. Gayratovich, M. E., Jahongir, M., & Abdugaffarovna, U. G. (2022). MAIN ECOTOURS IN FERGANA REGION. O'ZBEKİSTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMİY TADQIQOTLAR JURNALI, 2(13), 136-140.

4. Mamatisakov, J., Abduqaxxorov, L., & Shaydiyev, H. (2022). HISTORICAL DEVELOPMENT OF TOURISM AND GEOGRAPHICAL ASPECTS OF ITS RESEARCH. *Scientific Impulse*, 1(4), 379-385.

5. Gayratovich, M. E., Jahongir, M., & Musajonovna, A. F. (2022). SPELEOTOURISTIC POSSIBILITIES OF FERGANA VALLEY. *Scientific Impulse*, 1(4), 66-70.
6. Абдуғаниев, О. И. (2022). ЭКОЛОГИК КАРКАС ТАБИАТНИ МУХОФАЗА ҚИЛИШНИНГ ҲУДУДИЙ ШАКЛИ СИФАТИДА. *O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI*, 1(12), 487-494.
7. Mamatisakov, J. (2022). 1 Özbekiston milliy ensiklopediyasi (2000-2005) 2 Ziyo. uz (sayti). *Scientific Impulse*, 1(2), 587-590.
8. Ахмадалиев, Ю. И., Маматисаков, Ж., & Мухитдинов, И. (2022). НЕОБХОДИМОСТЬ СОВМЕСТНОГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ И ОХРАНА ПРИРОДНЫХ РЕСУРСОВ ПРИГРАНИЧНЫХ ТЕРРИТОРИЙ. *Scientific Impulse*, 1(3), 732-738.
9. Jahongirmirzo Mamatisakov (2022). IMPROVING STUDENTS' GEOLOGICAL KNOWLEDGE BY SCHOOL GEOGRAPHY EDUCATION. Academic research in educational sciences, 3 (10), 88-94.
10. J. J. Mamatisakov, M. M. Qahhorova, & S. I. Mo'Minova (2022). MAKTAB GEOGRAFIYA TA'LIMIDA FOYDALANILADIGAN MATEMATIK FORMULARLAR TAVSIFI. Academic research in educational sciences, 3 (10), 153-161.
11. Jahongirmirzo Jamoliddin O'G'Li Mamatisakov, Lazizbek Shavkatjon O'G'Li Abduqaxxorov, Abrorjon Alisher O'G'Li Rahmatjonov, & Akbarjon Adhamjon O'G'Li Vahobjonov (2021). REGIONAL ASPECTS OF DEVELOPMENT OF TOURIST ROUTES. *Scientific progress*, 2 (8), 57-60.
12. Ilhomjon Ihtiyorjon O'G'Li Muhitdinov (2021). SO'X DARYOSI OQIMINING SHAKLLANISHIDA GIDROMETEOROLOGIK OMILLARNING ROLI. Academic research in educational sciences, 2 (7), 286-290. doi: 10.24412/2181-1385-2021-7-286-290
13. Mamatisakov, J., Egamberdi, B., & Dostonbek, M. (2022). TERRITORIAL ASPECTS OF THE DISTRIBUTION OF ETHNOOYCONYMS OF FERGANA REGION. *Scientific Impulse*, 1(2), 591-595.
14. Махкамов, Э. Г., & Маматисаков, Ж. (2021). РЕКРЕАЦИЯ ВА ТУРИЗМ ОБЪЕКТАРИНИ ҲУДУДИЙ ЖОЙЛАШТИРИШНИНГ ГЕОГРАФИК ЖИХАТЛАРИ. *ГЕОГРАФИЯ: ПРИРОДА И ОБЩЕСТВО*, 2(1).
15. Ilhomjon Ihtiyorjon O'G'Li Muhitdinov, & Jahongirmirzo Jamoliddin O'G'Li Mamatisakov (2021). FARG'ONA VODIYSINING JANUBIY QISMI GIDROGRAFIYASI. *Scientific progress*, 2 (3), 975-980.
16. Jahongirmirzo Jamoliddin O'G'Li Mamatisakov, & Ilhomjon Ihtiyorjon O'G'Li Muhitdinov (2021). PROSPECTS OF DEVELOPMENT OF ECOTOURISM IN THE PROTECTED NATURAL AREAS OF FERGANA REGION. *Scientific progress*, 2 (3), 986-989.
17. Jahongirmirzo Jamoliddin O'G'Li Mamatisakov, Ilhomjon Ihtiyorjon O'G'Li Muhitdinov, & Ablazbek Erkinjon Ogli Madraximov (2021). PROSPECTS OF DEVELOPMENT OF AGRICULTURAL TOURISM IN FERGANA REGION. *Scientific progress*, 2 (8), 823-825.

- 
18. Ismoilovich, A. Y., & Erkinovich, M. A. (2022). THE USE OF HYDRONICS IN THE STUDY OF CHANGES OCCURRING IN THE PROCESS OF WATER USE. *PEDAGOGS jurnali*, 10(1), 148-154.
  19. О. И. Абдуганиев, & А. Мадрахимов (2022). МУҲОФАЗА ЭТИЛАДИГАН ТАБИЙ ҲУДУДЛАРНИНГ АСОСИЙ ТОИФАЛАРИ ВА ТАСНИФЛАРИ. Academic research in educational sciences, 3 (10), 136-143.
  20. Komilova, N. O. R. (2022). ALISHER NAVOIY ASARLARIDAGI TABIIY-GEOGRAFIK ASOSGA EGA BO'LGAN NOMLAR VA ULARNING TRANSFORMATSIYASI. *Results of National Scientific Research International Journal*, 1(5), 123-133.